O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI
TARIX FAKULTETI

Ro‘yxatga olindi: № BD-6020400 60220400-1.14 2024 yil “09” 09		**“TASDIQLAYMAN”** SamDU rektori: _____ R.I.Xalmuradov 2024 yil “__”_____

ARXEOLOGIK DALA TADQIQOT USULLARI VA TOPILMALARGA ISHLOV BERISH
FAN DASTURI

Bilim sohasi:	200000 – San’at va gumanitar fanlar
Ta’lim sohasi:	220000 – Gumanitar fanlar (Tillardan tashqari)
Ta’lim yo‘nalishi:	60220400 – Arxeologiya

Fan/modul kodi	O‘quv yili	Semestr	ECTS – Kreditlar
ADTUIIB1203 ADTUIIB1306	2024-2025 2025-2026	II III	3 6
Fan/modul turi	**Ta’lim tili**		**Haftadagi dars soatlari**
Majburiy	O‘zbek		6

	Fan nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Umumiy (soat)
1.	Arxeologik dala tadqiqot usullari va topilmalarga ishlov berish	36 72	54 108	90 180

Fanning maqsadi (FM)	
FM1	I. FANNING MAZMUNI **Fanni o‘qitishdan maqsad** – talabalarda “Arxeologik dala tadqiqot usullari va topilmalarga ishlov berish” fanining shakllanishi va taraqqiyoti, uning tarixiy fanlarni o‘rganishdagi o‘rni, jahon hamda, mamlakatimiz hududida moddiy-madaniyatlarning o‘zaro bog‘liqligi va xususiyatlari munosabatlarining shakllanishi haqida bilim, ko‘nikma va malaka shakllantirishdir. **Fanning vazifasi** – talabalarda fanning nazariy va amaliy masalalarini shuningdek, arxeologik manbalar turlari. Arxeologik manbalarning qadimgi davr tarixini yoritishdagi o‘rni va ahamiyati. Arxeologik yodgorliklar. Arxeologik yodgorliklar turlari. Axoli manzilgohlari, qabr-qo‘rg‘onlar majmualari, diniy inshootlar majmualari, ishlab chiqarish bilan bog‘lik inshootlar va majmualarini o‘rgatishdan iborat.

Fan mazmuni	
II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari) **II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**	
Mashg‘ulotlar shakli: ma’ruza (M)	
M1	**Arxeologik dala tadqiqot usullari va topilmalarga ishlov berish fanining maqsadi, vazifalari, predmeti va ob’ekti.** Ma’lumki, arxeologlar yodgorliklarni qazib o‘rganish jarayonida turli-tuman manbalarga duch keladilar. Bu manbalardan ilmiy foydalanish uchun arxeologlar birinchi navbatda, topilmalarni avaylab yerdan olish, uni qotirish (konservatsiya) va qayta ta’mirlash (restavratsiya) hamda boshqa bir qancha ishlarni amalga oshirish kerak. Arxeologik topilmalarni

	qazib olish va ularga ishlov berish usullari bilan talabalarni tanishtirish bu maxsus kursning asosiy vazifasidir. Bu usul maxsus laboratoriyalar tomonidan ishlab chiqiladi va doimo takkomillashib bormoqda. Talabalar bu maxsus kurs davomida olgan bilimlarini kurs ishi yozish davomida mustahkamlab boradilar. Ular chizmalar chizish, topilmalarni ta'riflash, kartochkalar tayyorlash, ilmiy adabiyotlardan ko'chirma olish usullari bilan tanishib o'zlarining mustaqil ishlarida ulardan amalda foydalanadilar. Hozirgi kunda O'zbekiston arxeologiyasi qo'lga kiritayotgan kashfiyot, yutuqlar borasida mukammal bilim berish, bunda xorijning yirik ilmiy markazlari bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan tadqiqotlar natijalariga tayanish ko'zda tutiladi. Antropogenez jarayoni, farg'ona odami, obirahmat odami ahamiyati, va keyingi tarixiy taraqqiyot bosqichlari jamoalari moddiy madaniyati, shaharsozlik madaniyati, o'zbek davlatchiligi tarixi, xususan qadimgi sivilizatsiyalarimiz mazmun, mohiyati va ahamiyati borasida mukammal ma'lumot berish, magistrantlarda bu haqida bilim ko'nikmalar hosil qilishdan iborat.
M2	**Arxeologik dala tadqiqotlari tarixidan** G'arbiy Yevropa, Rossiya va AQSh arxeologik tadqiqotlari tarixidan. Yaqin Sharq va Misrda G'arb arxeologlarining tadqiqotlari. Afrika mintaasida amalga oshirilgan arxeologik tadqiqotlar. Shimoliy Qoradengiz bo'yi shaharlari va qo'rg'onlarida rus tadqiqotchilarini olib borgan ishlari. O'rta Osiyo arxeologiyasini rivojlanish davrining boshlanishi. XAEE, TAKE, YuTAKE. Sug'd va Farg'onada olib borilgan tadqiqotlar. Madaniy meros agentligi Yaxyo G'ulomov nomidagi Samarqand arxeologiya institutining tadqiqotlari.
M3	**Arxeologiya dala tadqiqotlarini qonuniylashtirish** Dala tadqiqot ishlarini olib borishda amal qilinadigan qonun qoidalar. Ochiq varaq olish tartib qoidalari. Tadqiqotlarga tayyorgarlik ko'rish ishlari. Dala tadqiqotlarini o'tkazish uchun tayyorlanadigan hujjatlar.
M4	**Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida arxeologiya fani taraqqiyoti.** Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida xalqaro ekspeditsiyalar tomonidan amalga oshirilgan arxeologik tadqiqotlar va ularning Vatanimiz tarixini yoritishdagi o'rni hamda ahamiyati. O'zbekiston va Yaponiya xalqaro ekspeditsiyasi tadqiqotlarida Vatanimiz qadimgi davr tarixining o'rganilishi. Vatanimiz qadimgi va o'rta asrlar davri tarixining O'zbek-Frantsuz Baqtriya xalqaroekspeditsiyasi tadqiqotlarida. O'zbekiston-Germaniya va O'zbekiston-Chexiya xalqaro ekspeditsiyalari faoliyati.
M5	**Arxeologiya merosi ob'yektlarini muhofaza qilish va ularning ilmiy katalogini shakllantirish masalasi**

	Arxeologiya merosi ob'yektlarini muhofaza qilish bo'yicha mavjud tartib qoidalar. Arxeologiya ob'ektlarini davlat hisobiga olishga ularni aniqlash, batafsil tavsifi bilan ularning ro'yxatini tuzish, ilmiy va madaniy qimmatini aniqlash, ilmiy hisobot takdim etish, arxeologiya ashyolarini davlat katalogida ro'yxatdan o'tkazish, fan, madaniyat va ta'lim muassasalariga biriktirib qo'yilgan arxeologiya ashyolarini hisobga olish.
M6	**Arxeologik dala tadqiqot ishlarini tashkillashtirish.** Arxeologik tadqiqot ishlarini olib borishning maqsadi va vazifalari. Tadqiqot olib borilayotgan xududga oid arxiv va kartografik ma'lumotlarining o'rganilishi. Yodgorlik joylashgan hududning zamonaviy tabiiy xususiyatlari bilan tanishish va madaniy qatlamlarni shakllanishida paleografik shart sharoitlarni dastlabki baholash. Yodgorlik turiga qarab qazishma olib borish strategiyasini aniqlash va yodgorlikda qazishma olib borish uchun asbob –uskunalarni tayyorlash. Topilmalarni qayd etish tizimini tanlash.
M7	**Arxeologik qidiruv ishlari** Tarix fanining taraqqiyotida arxeologik dala tadqiqotlarning o'rni va ahamiyati. Arxeologik tadqiqot olib borish usullari. Arxeologik dala tadqiqot ishlari tizimini ishlab chiqish. Aerofotonusxa. Kosmiknusxa. Elektro-magnit qidiruv usullari. Tarixiy rekonstruktsiya. Turli davrlarga oid arxeologik yodgorliklar joylashuvi.
M8	**Arxeologik kuzatuv.** Arxeologik kuzatuv turlari, maqsadi va vazifalari. Arxeologik kuzatuv uchun asbob uskunalarni tanlash. Tadqiq etilayotgan xududga oid arxeologik madaniyatlar xaqida ma'lumolarga ega bo'lish. Tadqiq etilayotgan xudud geografiyasi va topografiyasini o'rganish. Qidiruv rejasini tuzish. Maxalliy aholidan o'rganilayotgan xudud borasida ma'lumotlar olish. Yodgorlik yuqori qatlamlari ya'ni yuza qismidagi topilmalarni o'rganish. Yodgorlikni dastlabki fototasvirga olish va x.zo.
M9	**Arxeologiyada madaniy qatlam tushunchasi** Madaniy qatlam tushunchasi. Yodgorliklarning stratigrafiyasini o'rganish madaniy qatlamlarining, inshootlarning nisbiy sanasini (yoshini) aniqlash, madaniy qatlamni o'rganish tarixiy jarayonlarni to'liq o'rganish usullaridan biri. madaniy qatlamning qimmati.
M10	**Arxeologiya yodgorliklari va ularni tasniflash** Arxeologik yodgorliklar turlari. Aholi manzilgohlari, qabr-qo'rg'onlar majmualari, diniy inshootlar majmualari, ishlab chiqarish bilan bog'lik inshootlar majmualari.
M11	**Arxeologik manbalar.** Arxeologik manbalar turlari. Arxeologik manbalarning qadimgi davr tarixini yoritishdagi o'rni va ahamiyati. Arxeologik yodgorliklar. Arxeologik yodgorliklar turlari. Aholi manzilgohlari, qabr-qo'rg'onlar majmualari, diniy inshootlar majmualari, ishlab chiqarish bilan bog'lik

	inshootlar majmualari. Numizmatika materiallari, sopol buyumlar va ularni tasniflash, metalga ishlov berish xunarmandchiligi mahsulotlari, arxeologik yodgorliklar memoriy tuzilishi va h.k.
M12	**Arxeologiya yodgorliklarini davrlashtirish** Yodgorlikning paydo bo'lish davri; rivojlangan davri va tashlab ketilgan davrini aniqlash. Yodgorliklarni qatlamlar orqali davrlashtirish.
M13	**Arxeologik dala tadqiqot ishlarida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish.** Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish. Aerofotosyomka. Radoikarbon texnologiyasi. GIS texnologiyalari. Kimyoviy labaratoriyalar orqali topilmalarga ishlov berish usullarini o'rganish.
M14	**Axborot texnologiyalari vositasida arxeologik ma'lumotlar asosida tarixiy rekonstruktsiya.** Arxeologik dala tadqiqotlarda zamonaviy axborot texnologiyalarining qo'llanilishi. Arxeologik ma'lumot va arxeologik ma'lumotlar bazasi. Arxeologik ma'lumotlarni qayta ishlashda axbrot texnologiyalarining qo'llanilishi. Arxeologik ma'lumotlar va ob'yektlarni guruhlash usullari. Tasniflash va turlarga ajratish. Arxeologiyada kompyuter xaritalash. Manbalari, usullari va texnologiyasi.
M15	**Arxeologik tadqiqotlarda arxeobotanika.** Arxeobotanika atamasiga ta'rif. Zamonaviy arxeologik tadqiqotlarda arxeobotanika yo'nalishining o'rni va ahamiyati. Arxeoboanika manbalari turlari. Arxeobotanika manbalarini tasniflashda asosiy talablar. Arxeobotanika manbalarini dala sharoitida olishning asosiy usullari. Arxeobotanika manbalari saqlanishiga ta'sir qiluvchi omillar. Arxeobotanika manbalarini o'rganish asosidagi ma'lumotlar va ularni tahlil qiish.
M16	**Arxeologik tadqiqotlarda arxeogeofizika.** Arxeogeofizikaning qaror topishi va taraqqiyoti. Arxegeofizikaning maqsad va vazifalari. An'analar va yangiliklar. Arxeogeofizik tadqiqotlarning uslubiy jihatlari. Arxeogeofizik o'lchovlar. O'lchash va talqin qilish metodologiyasi va texnologiyasi. Asosiy tushuncha va atamalar. Arxeogeofizik tadqiqotlarda qo'llaniladigan qurilmalar va dasturiy ta'minotlar. Arxeogeofizik o'lchovlarni modellashtirish.
M17	**Arxeologik tadqiqotlarda poleobotanika va antropologiya** Tadqiqotlarda paleobotanika ma'lumotlaridan foydalanish. Arxeologik topilmarga ishlov berish va davrlashtirishda antropologiya fani yutuqlaridan foydalanish.
M18	**Arxeologik tadqiqotlarda epigrafika va numizmatika** Arxeologik tadqiqotlarda topilgan topilmalarni epigrafik va numizmatik materiallarini tahlil qilish. Epigrafika fanining arxeologiyada tutgan o'rni. Numizmatik materiallar tahlili.

M19	**Manzilgohlar va qabr-qorg'onlarda qazuv ishlarini olib borish usullari.** O'zbekiston Respublikasida qadimiy yodgorliklarni avaylab asrash to'g'risida qabul qilingan qonun va qarorlar. «Ochiq xat» (Ruxsatnoma) olish tartibi va qoidalari. Manzilgohlar va qabr-qo'rg'onlarni turlari. Qazuv ishlarini boshlashdagi dastlabki usullar. Arxeologik yodgorliklarda to'g'ri to'rtburchakli, yarusli, qatlamli va boshqa qazuv ishlar usullari. Qatlam nazariyasi. Suvosti arxeologiyasi. Arxeologik topilmalarni belgilash.
M20	**Qadimgi shahar harobalarida arxeologik tadqiqotlar olib borish usullari.** Qazuv ishlarini boshlashdagi dastlabki usullar. Arxeologik yodgorliklarda to'g'ri to'rtburchakli, yarusli, qatlamli va boshqa qazuv ishlar usullari. Qatlam nazariyasi. Suvosti arxeologiyasi. Arxeologik topilmalarni belgilash.
M21	**Raqamli asrda arxeologik dala tadqiqot ishlarini hujjatlashtirish.** Hujjatlashtirishning mikro va makro darajalari. Arxeologik dala tadqiqot ishlarini hujjatlashtirishning an'anaviy usullari. Murakablik darajasi. Dolzarbligi. Fototasvir va fotogammetriya. Katta hajmdagi ma'lumotlar va tahlil. Nusxalash va modellashtirish. Mobil dasturlar.
M22	**Dunyoning yetakchi davlatlaridagi laboratoriyalari.** AQSH, Yevropa, Rossiya, Yaponiya, Koreya, Xitoy, Koreya va boshqa davlatlarda joylashgan fizik, ximik, arxeologik laboratoriyalar va ularda radiokarbon, kalikarbon, kaliorgan, dendroxronologiya, analiz natijalari. Trassalogiya, termolyuminissensiya va boshqa usullar.
M23	**Har xil turdagi topilmalarni qazib olish va ularga qayta ishlov berish.** Har xil turdagi topilmalarni qazib olish va ularga dastlab ishlov berish usullari. Sopol buyularni qayta tiklash. Tanga pullarni tozalash. Suyak, gazlama, teri, shisha va yog'och buyumlarni tozalash va qayta tiklash. Devoriy suratlarni qazib ochish, tozalash va qayta tiklash usullari. Arxeologik topilmalar sanasini aniqlashning asosiy usullari. Aniq va nisbiy sana. Tanga va yozma manbalar asosida yodgorliklarning sanasini aniqlash. Topilmalarni qiyosiy va badiiy xususiyatlari asosida sanasini aniqlash. Tabiiy fanlarning arxeologik tadqiqot usullarida qo'llanilishi (radiokarbon, kalioargon, dendroxronologik, termolyuminissensiya usullari). Sinxronizasiya.
M24	**Metall buyumlar va mato buyumlar konservasiyasi va restavrasiyasi** Metal tashqi va ichki xususiyatlari. Metal buyumlarining yemirilishi. Rangli metallar. Korroziya turlari. Temir. Qazishma jarayonida metall buyumlarni tozalash. Qazishmalar jarayonida nafis metallarni mustaxkamlash. Metall buyumga ishlov berish turlari. Qazishma

	jarayonida metall buyumlarni ajratib olish. Gips formalar va ularning qo'llanilishi. Mato buyumlar va ularning turlari. Mato topilmalarni qazib olish va tozalash. Mato topilmalarning saqlanish darajasi. Mato buyumlarga ximiyaviy ishlov berish.
M25	**Shisha buyumlar konservasiyasi va restavrasiyasi** Shisha buyumlardan iborat arxeologik topilmalar. Ularning turlari. Yerda shisha buyumlarning yemirilishi turlari: mexanik, ximik. Shisha topilmalarning saqlanish darajasi. Qazishma jarayonida shisha buyumlarni tozalash. Shisha buyumlarni mustaxkamlash (qotirish).
M26	**Sopol buyumlar va ularga ishlov berish hamda qayta tiklash** Sopol buyumlar klassifikasiyasi va tipologiyasi. Sopol buyumlarni qazishma jarayonida qazib ochish va unga qo'yiladigan talablar. Sopol buyumlar tozalash. Sopol buyumlarni tiklash. Sopol buyumlarni qotirish. Sopol buyumlarni maxsus idishlarga joylashtirish.
M27	**Suyakdan ishlangan arxeologik topilmalarga ishlov berish va ularni saqlash** Suyakdan ishlangan buyumlarning asosiy turlari. Tuproqdan suyakdan ishlangan topilmalarning yemirilish darajasini aniqlash. Suyakdan ishlangan topilmalarni tozalash. Ularni maxsus idishlarga joylashtirishdagi asosiy talablar. Laboratoriya sharoitida suyakdan ishlangan topilmalarga ishlov berish yoki ularni tiklash.
M28	**Ilmiy ishlar va hisobotlar tayyorlash.** Qazuv ishlar natijalari asosida ilmiy hisobotlar tayyorlash tartibi. Kurs ishi va bitiruv ishlari yozish. Arxeologik adabiyotlar ustida ishlash. Mutaxassislik bo'yicha kataloglar tuzish.
III.Mashg'ulotlar shakli: seminar (S)	
S1	Arxeologik dala tadqiqotlari tarixidan.
S2	Arxeologiya dala tadqiqotlarini qonuniylashtirish.
S3	Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida arxeologiya fani taraqqiyoti.
S4	Arxeologiya merosi ob'yektlarini muhofaza qilish va ularning ilmiy katalogini shakllantirish masalasi.
S5	Arxeologik dala tadqiqot ishlarini tashkillashtirish.
S6	Arxeologik qidiruv va kuzatuv ishlari.
S7	Arxeologiyada madaniy qatlam tushunchasi.

S8	Arxeologiya yodgorliklari va ularni tasniflash.
S9	Arxeologik manbalar.
S10	Arxeologiya yodgorliklarini davrlashtirish.
S11	Arxeologik dala tadqiqot ishlarida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish.
S12	Arxeologik dala tadqiqot ishlarida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish.
S13	Axborot texnologiyalari vositasida arxeologik ma'lumotlar asosida tarixiy rekonstruktsiya.
S14	Arxeologik tadqiqotlarda arxeobotanika.
S15	Arxeologik tadqiqotlarda arxeogeofizika.
S16	Arxeologik tadqiqotlarda poleobotanika va antropologiya.
S17	Arxeologik tadqiqotlarda epigrafika va numizmatika.
S18	Manzilgohlar va qabr-qorg'onlarda qazuv ishlarini olib borish usullari.
S19	Qadimgi shahar harobalarida arxeologik tadqiqotlar olib borish usullari.
S20	Raqamli asrda arxeologik dala tadqiqot ishlarini hujjatlashtirish.
S21	Har xil turdagi topilmalarni qazib olish va ularga qayta ishlov berish.
S22	Metall buyumlar va mato buyumlar konservasiyasi va restavrasiyasi.
S23	Shisha buyumlar konservasiyasi va restavrasiyasi.
S24	Sopol buyumlar va ularga ishlov berish hamda qayta tiklash.
S25	Suyakdan ishlangan arxeologik topilmalarga ishlov berish va ularni saqlash.
S26	Ilmiy ishlar va hisobotlar tayyorlash.
III.Mashg'ulotlar shakli: laboratoriya (L)	
L1	Tosh materiallarni texnik tipologik tahlil qilish va ularni chizish.

L2	Arxeologik tadqiqotlarda zamonaviy qurilmalardan foydalanish.
L3	Har xil turdagi topilmalarning konservatsiyasi va restovratsiyasi.
L4	Sopol buyumlar konservatsiyasi va restovratsiyasi.
L5	Sopol buyumlarni shifrlash va chizish.
L6	Har xil turdagi topilmalarni tozalash va quritish usullari.
L7	Devoriy sur'atlarni dala sharoitida tozalash, qoldiqlarini laboratoriya sharoitida qayta tiklash.
L8	Har xil topilmalarni chizish (zeb-ziynat, devoriy sur'atlar, shisha va hokazo).
L9	Metall buyumlarni tozalash va chizish.
L10	Numizmatik materiallarni tozalash va metrologik usullar.
L11	Laboratoriya sharoitida paleozolog va paleobotanik topilmalar ustida ishlash.
L12	Laboratoriya sharoitida antropologik topilmalar ustida ishlash.
L13	Arxeologik ashyolarni hisobga olish va saqlash.
L14	Yodgorliklarni tarixiy davrlar bo'yicha xaritalashtirish (tosh, eneolit-bronza, temir, antik, o'rta asrlar davri).

IV. **Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular

"Arxeologik dala tadqiqot usullari va topilmalarga ishlov berish" fani bo'yicha ma'ruza mashg'ulotlari bo'yicha mustaqil ishlarning kalendar tematik rejasi

№	**Mustaqil ta'lim mavzulari**
1.	ЮТАКЕ, ХАЭЭ, КАТЭ, Termiz va boshqa arxeologik ekspeditsiyalar tarixi.
2.	Arxeologik tadqiqotlar qonunchiligimizda.
3.	Arxeologik tadqiqot usullari.
4.	Arxeologik yodgorliklarni o'rganishda kosmiknusxalardan foydalanish.
5.	Arxeologik yodgorliklarni ro'yxatga olish tartibi.
6.	Qadimgi dunyoning turli hududlarida ishlab chiqarishning rivojlanish

	darajasini taqqoslash (mezolit, neolit, eneolit, bronza, ilk temir davri).
7.	Arxeologik dala tadqiqotda geoinformatsion tizimlardan foydalanish.
8.	Arxeologiya va hozirgi zamon.
9.	Dunyodagi asosiy arxeologik maktablar.
10.	XX asrning 80–90- yillarida O'zbekiston arxeologiyasi.
11.	Tosh davriga oid yodgorliklarni o'rganishda dala tadqiqotini tashkil etish.
12.	Tosh davri topilmalariga dala sharoitida dastlabki ishlov berish.
13.	Dala ekspeditsiyasi uchun ishlatiladigan ximik vositalar.
14.	Mozor-qo'rg'onlarni, qadimgi shahar xarobalarini o'rganishda dala tadqiqot usullari.
15.	Suvosti arxeologiyasi.
16.	Har xil turdagi topilmalarni muzeylashtirish.
17.	Sopol buyumlarga dala sharoitida dastlabki ishlov berish va tipologik o'rganish usullari.
18.	Yetakchi davlatlarning laboratoriyalari(AQSH, Yevropa va Osiyo).
19.	Arxeologiyada tabiiy ilmiy usullar(Radiokarbon, denroxronologiya, Spora-polen tahlili, saqlash (konservatsiya), qayta tiklash(restavratsiya), qayta qurish(rekonstruksiya), statistika va boshqa usullar).
20.	Yog'ochdan yasalgan buyumlarga dala sharoitida konservatsiya va restovratsiya.
21.	Qadimiy dag'al topilmalar (yog'och, gazlama, teri, ipak va boshqalar)ni tiklashda zamonaviy usullardan foydalanish.
22.	Dala sharoitida zooarxeologik topilmalar ustida ishlash.

3.	**V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: • **"Arxeologik dala tadqiqot usullari va topilmalarga ishlov berish"** fanidan talabalar, ushbu davrda tarixiy tadqiqotlar ko'lami, davrning o'z dolzarb muammosini tadqiqotlarning metodologik asoslari haqida ***tasavvur va bilimga ega bo'lishi;*** • Talaba **"Arxeologik dala tadqiqot usullari va topilmalarga ishlov berish"** fanining alohida fan sifatida mavqyeiga ega bo'lishi, o'rganilayotgan davr va bugungi kun tarix fanining dolzarb muammolarini to'g'ri talqin qilish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak***. • Talaba o'zlashtirayotgan fan bo'yicha egallagan bilimlarini tahlil qilish to'plangan tarixiy tajribani ilmiy va pedagogik amaliyotda samarali qo'llash ***malakalariga ega bo'lishi kerak***.
4.	**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • *munozara,*

	• *o'z-o'zini nazorat.* • "Aqliy hujum", • "Muammo"; • Krossvord • Annogrammalar • Ko'chma dars mashg'ulotlari
5.	**VII. Kreditni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy nazorat shakllari, hamda mustaqil ta'limda berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish

ASOSIY ADABIYOTLAR:

1. Мартынов А. И., Шер Я. А. Методы археологического исследования. – М., 2011.

2. Кабиров Ж., Сагдуллаев А. Ўрта Осиё археологияси. – Т.: Ўқитувчи, 1990.

3. Эгамбердиева Н. А. Археология. – Т., 2011.

4. Кошелев И. Н. Магнитная разведка археологических памятников. Учебное пособие. – Киев, 2005.

5. Воробьева Г. А., Бердникова Н. Е. Картография для археологов. – Иркутск, 2007.

6. Ochilov A.T. Arxeologik dala tadqiqot usullari va topilmalarga ishlov berish. O'quv qo'llanma. Buxoro: Fan va ta'lim, 2022.

QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR:

1. Colin Renfrew, Paul Bahn. Archaeology. Theories, Methods, and Practice. Canada, 2012
2. Connah G. Writing about Archaeology. Cambridge University Press.2010
3. Hiroaki Furusho., Shigeo Aoki., Kazuki Sugimoto., Nodoka Inutaka., Yoichi Inoue., Chikara Inoue., Улмасов А., Шерназаров Ш. Археология устахонаси 2011. Т. 2011
4. Neustupny E. Archaeological Method. Cambridge University Press.2009
5. Абдуразаков А.А., Камбаров М.К. Реставрация настенных росписей Афрасиаба. Т., 1975.

6. Алексеева О.Е., Саввониди Н.Ф. Иллюстрированный Англо-русский-руссо-английский историко-археологический словарь. Санкт-Петербург. 1993. Djvu
7. Археологические исследования в зонах мелиорации, итоги и перспективы их интенсификации. – Л., 1985.
8. Басс Дж. Подводная археология. Древние народы и страны. – М., 2003.
9. Басс Джордж. Подводная археология. Древние народы и страны. М.: ЗАО Центрополиграф. 2003.
10. Воробьева Г.А., Бердникова Н.Е. Картография для археологов. Учебное пособие. Иркутск. 2007.
11. Герасимова Н.Г., Ногид И.Л., Молчанов В.С. Очистка и сохранение стеклянных предметов в музеях (Из опыта Государственного Эрмитажа) //Художественное наследие (хранение, исследование, реставрация). М., 1975, №1 (31).
12. Герасимова Н.Г., Ногид И.Л., Молчанов В.С. Очистка и сохранение стеклянных предметов в музеях (Из опыта Государственного Эрмитажа) //Художественное наследие (хранение, исследование, реставрация). М., 1975, №1 (31).
13. Кабиров А., Сагдуллаев А.С. Ўрта Осиё археологияси. - Т., 1990.
14. Кирьянов А. В. Реставрация археологических предметов. – М., 1960.
15. Кошелев И.Н. Магнитная разведка археологических памятников. Учебное пособие. Киев. 2005.
16. Крашенинникова Н. И. Методика обработки археологического материала. – Т., 1988.
17. Лопатин В. А., Малов Н. М., Малышев А. Б., Четвериков С. И.. Основы археологии (методика полевых исследований и археологическая практика). Учебно-методическое пособие для студентов исторических факультетов. Саратов 2006.
18. Лунина С.Б. К основным итогам археологических исследований в Узбекистане //Материалы по истории, историографии и археологии. Сборник научных трудов ТашГУ. Т., 1975. № 482.
19. Мартынов А.И., Шер Я.А. Методы археологического исследования. М., 2011.
20. Массон М. Е. Краткий очерк истории изучения Средней Азии в археологическом отношении // Труды САГУ. Новая серия. Вып. 81. – Т., 1956.

21. Матюшин Г.Н. Археологический словарь. М.: Просвещение: АО "Учебная литература". 1996. pdf.
22. Методика полевых археологических исследований. – М., 1983.
23. Реставрация, исследование и хранение музейных художественных ценностей (реферативный сборник). М., 1979, вып.4.
24. Ридман О.М., Чепко Е.С., Дереникьян Г.С., Машков А.А. Термический метод консервации сырцовых конструкций //Художественное наследие (хранение, исследование, реставрация). М., 1977, №3 (33).
25. Усманова З.И. Методические указания полевых исследований для студентов-археологов. Т., 1988.
26. Шапова Ю. Л. Естественно-научные методы в археологии. – М., 1988.

AXBOROT MANBALARI:

1. www.history.ru
2. www.natura.com
3. www.archeology.ru
4. www.archeology.com
5. https://uz.warbletoncouncil.org/arqueologia
https://education.nationalgeographic.org/resource/archaeology/
https://www.saa.org/about-archaeology/what-is-archaeology
https://www.nps.gov/subjects/archeology/index.htm
https://www.amnh.org/explore/ology/archaeology/what-is-archaeology
http://www.ziyonet.uz/

6.	Fan dasturi Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti O'quv-uslubiy kengashining 2024 yil "30" avgustdagi 1 -son bayonnomasi bilan ma'qullangan.
7.	**Fan/modul uchun mas'ullar**: **Nazarov A.A.** – Sharof Rashidov nomidagi SamDU, "Arxeologiya" kafedrasi o'qituvchisi.
8.	**Taqrizchilar:** **Ergashev O.T.** – Arxeologiya kafedrasi mudiri PhD., dotsent(tel:(99)4598579). **Hoshimov H.B.** – Madaniy meros agentligi Yaxyo G'ulomov nomidagi Samarqand arxeologiya instituti, PhD., Katta ilmiy xodim. (tel:(93)4164149).

Kafedra mudiri: **O.T.Ergashev**

Fakultet dekani: **D.M.Djurakulova**

Sh. Rashidov nomidagi
SamDU O'quv ishlari bo'yicha
I-prorektor: **A. S. Soleyev**

Fan dasturlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqish ma'sul ekspert guruhi a'zolari:

1. Ergashev O.T.
2. Rahimov B.
3. Xolmatov N.U.

SamDU Tarix fakulteti Arxeologiya ta'lim yo'nalishi o'quv rejasidagi "Arxeologik dala tadqiqot usullari va topilmalarga ishlov berish" fanining o'quv dasturiga tashqi

TAQRIZ

Arxeologik dala tadqiqot usullari va topilmalarga ishlov berish fani rivojining O'zbekiston va Jahon tarixshunosligi mavjud. Xususan, Arxeologik dala tadqiqot usullari va topilmalarga ishlov berish fanining fan sifatida shakllanishi, havaskor arxeologlar to'garagi, yirik arxeologik ekspeditsiyalarning tuzilishi, tabiiy fanlar bilan birgalik va ularning tadqiqotlari bu fanning ilmiy asoslanishiga zamin bo'lgan. Arxeologik dala tadqiqot usullari va topilmalarga ishlov berish fani taraqqiyoti bosqichlarining har biri XX 40-yillar ikkinchi yarmidan e'tiboran tadqiqoti ko'lamlari, Jahon va O'rta Osiyo arxeologik tadqiqotlarida kompleks fanlarning yutuqlaridan foydalanish ishlari yo'lga qo'yildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi yillarida arxeologik yodgorliklar tadqiqotida jahonning yetuk ilmiy markazlari bilan hamkorlik ishlari keng yo'lga qo'yilganligi Arxeologik dala tadqiqot usullari va topilmalarga ishlov berish fani uchun muhim yangilik bo'ldi.

Keyingi yillarda O'zbekiston sarhadlarida tosh asri, paleometall jamoalari Moddiy madaniyati, ilk temir davri, antik va o'rta asr arxeologiyasi yodgorliklari tadqiqotlari natijalari juda sermahsul ishlar amalga oshirildi. O'rta Osiyoda tosh asri tarixi, jamoalarining moddiy madaniyati xususan, davr ijtimoiy tuzumi, antropogenez jarayoni, inson va tabiatning o'zaro aloqadorligi, tosh asrining davrlashtirilishi va tarixiy bosqichlarning o'ziga xos xususiyatlari, davr yodgorliklarining xronologik doirasi va mustaqil arxeologik madaniyatlarini yoritish imkonini beruvchi katta hajmdagi arxeologik materiallar qo'lga kiritilishiga erishildi. Natijada bu yodgorliklarda tadiqiqot o'tkazishda zamonaviy usullardan keng ko'lamda foydalanish, yodgorliklardan aniqlangan artefaktlarni laboratoriyalarda o'rganish imkoniyatlarini yaratib bermoqda.

Fan, ta'lim va ishlab chiqarishni integratsiyasi kun tartibiga qo'yilgan shu kunda yuqorida keltirilgan Arxeologik dala tadqiqot usullari topilmalarga ishlov berish tadqiqotlari natijalari hamda bu sohada chiqarilgan yakuniy xulosalarni ta'limga tadbiq etish juda dolzarbdir. Shu nuqtayi nazardan, Arxeologik dala tadqiqot usullari va topilmalarga ishlov berish buyicha muallif tomonidan tuzilgan mazkur fan dasturi bir necha jixatlari bilan sifatiy ko'rsatgichlarga ega deb o'ylayman: 1-dan tuzilgan mavzular keyingi deyarli o'ttiz yil maboynida Jahon va O'rta Osiyo miqyosida arxeologik yodgorliklar tadqiqoti natijalariga tayanilgan. 2-dan Arxeologik dala tadqiqot usullari va topilmalarga ishlov berish fanining maqsadi, ob'ekti, predmeti va vazifalari, arxeologik dala tadqiqotlari tarixi, tadqiqotlarini qonuniylashtirish, arxeologiya merosi ob'yektlarini muhofaza qilish va ularning